



UDK: 633.15:338.43(575)

Sanjarbek TOYIROV,

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: toyirovsanjarbek8@gmail.com

Farg'ona davlat texnika universiteti dotsenti I.Tishabayeva taqrizi asosida

SOVIET STATE POLICY ON PROVIDING AGRICULTURE WITH EQUIPMENT

Annotation

This scholarly article provides a comprehensive analysis of the Soviet state's policy for supplying agriculture with machinery. The study focuses on the theoretical foundations of the development of agricultural machinery during the Soviet era, its institutional structure, practical mechanisms, and long-term consequences.

Key words: Machine-tractor stations, agriculture, kolkhoz, cotton monopoly, mineral fertilizers, agricultural machinery, equipment, factory.

СОВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО ПОЛИТИКА ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА ТЕХНИКОЙ

Аннотация

Данная научная статья комплексно анализирует политику обеспечения сельского хозяйства техникой в советском государстве. Основное внимание исследования сосредоточено на теоретических основах развития сельскохозяйственной техники в советскую эпоху, институциональной структуре, практических механизмах и долгосрочных последствиях.

Ключевые слова: Машинно-тракторные станции, сельское хозяйство, колхоз, хлопковая монополия, минеральные удобрения, сельскохозяйственная техника, оборудование, завод.

SOVET DAVLATI QISHLOQ XO'JALIGINI TEXNIKA BILAN TA'MINLASH DAVLAT SIYOSATI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola sovet davlatining qishloq xo'jaligi texnika bilan ta'minlash siyosatini kompleks tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy e'tibori sovet davridagi qishloq xo'jaligi texnikalari rivojlanishining nazariy asoslari, institutsional tuzilishi, amaliy mexanizmlari va uzoq muddatli oqibatlariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mashina-traktor stansiyalari, qishloq xo'jaligi, kolxoz, paxta yakkahokimligi, mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik texnikasi, uskunalar, zavod.

Kirish. Sovet davlatida hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash siyosati murakkab reja asosida amalga oshirilgan bo'lib, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni markazlashtirilgan rejalashtirish, resurslarni ajratish va strategik yo'naltirish orqali amalga oshirilgan. Bu siyosat nafaqat qishloq xo'jaligi, balki, sovet sanoati va mudofaa tizimini shakllantirishda ittifoq parchalanganidan keyin ham davom etayotgan texnika rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Sovet texnika siyosatining asosiy xususiyati uning davlat tomonidan boshqariladigan tabiati bo'lib, erkin bozorga asoslangan iqtisodiyotlardan keskin farq qilardi. Ushbu maqolada sovet ittifoqining qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlash davlat siyosatining tarixiy ildizlari, nazariy asoslari, institutsional tuzilishi, amaliy mexanizmlari, muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sovet davlatining qishloq xo'jaligi texnika bilan ta'minlash davlat siyosatini o'rganish murakkab ko'p qirrali tadqiqotni talab qiladi, chunki bu mavzu nafaqat tarixiy, balki siyosiy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy jihatlarini o'z ichiga oladi. Sovet qishloq xo'jaligi texnika siyosatini o'rganishda quyidagi asosiy manbalar muhim ahamiyatga ega. Sovet davri hujjatlari va arxiv materiallari, SSSR Oliy soveti va sovet ministrilarining qarorlari, Markaziy Komitetning qarorlari, Davlat reja qo'mitasi (Gosplan) hujjatlari, statistik ma'lumotnomalar, davlatning matbuot nashrlari, xotiralar va memuarlar. Mazkur maqolada tarixiy tahlil, tizimli va xronologik tahlil singari metodlardan foydalanildi.

Natija va muhokama. XX asrning 30-yillaridan sovet davlatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, paxtachilikka alohida e'tibor qaratilishi natijasida yerlar o'zlashtirilib, yangi

xo'jaliklar barpo etila boshladi. Paxta yakkahokimligining mustahkamlanishi bilan birga uni mexanizatsiyalash, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va uni qishloq xo'jaligida ishlatish, mineral o'g'itlar ishlab chiqaradigan zavodlarni qurish, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini yanada rivojlantirish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida 1917-yildan qishloq xo'jalik traktorlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Sovet hokimiyatining kollektivlashtirish davrida sovet qishloq xo'jaligini traktorlar bilan ta'minlab beruvchi SSSRdagi dastlabki mashina – traktor stansiyalari 1929-yil 8-mayda SSSR Mehnat va mudofaa kengashining "Mashina-traktor stansiyalari tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etildi. Ular butunittifoq "Traktorsentr" hamda Yer egaligi xalq komissarligi qoshida tashkil etila boshladi. Mashina-traktor stansiyalari juda katta tezlikda tashkil etildi. Masalan, 1929–1930-yillarda 260 MTS tashkil etilgan bo'lsa. 1932-yilda 2446 ta, 1937-yilda 5818 ta, 1938-yilda 6350 ta, 1940-yilda 7069 taga yetdi [1]. 1933-yil 5-fevralda va 13-yanvar 1939-yilda SSSR XKS kolxozlar va MTSlar o'rtasida shartnoma imzolanishi haqidagi qaror chiqdi. Unga ko'ra qishloq xo'jaligida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, yer haydaydigan va hosil yig'adigan qishloq xo'jalik mashinalari yetkazib berishi belgilab berildi. Shu tarq MTSlar qishloq xo'jaligida asosiy kalit vazifasini bajarilgan tashkilotga o'xshab bordi. Hatto, 1933-yildan MTSlarda kollektivlashtirishga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradigan siyosiy bo'limlar ochildi. Siyosiy bo'limlar boshliq o'rinbosarlari Bosh siyosiy boshqarma (OGPU) xodimlari bo'ldi. 1934-yildan MTSlar partiya tashkilotlari bilan birlashdi. 1953-yilga qadar siyosiy bo'lim bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimi 1953-yilga qadar saqlanib qoldi. 1953-

yildan traktorch, ekskavatorchi, brigadirlar asosiy shtatga o'tadilar. Biroq, dastlabki yillardan qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlash muammolari saqlanib qoldi. Ikkinchi jahon urishi yillarida MTSlar yuk tashish va boshqa texnikalarni yetkazib berish vazifalarini bajardi. 1943-yilda mamlakatda 7069 MTSlar bo'lib, ularning mablag'i 10,0 mlrd. rublni tashkil etdi [2]. Urush yillari mashina-traktor stansiyalariga qishloq xo'jalik texnikasini keltirish kamaydi. Urush yillari 98 000 kolxoz talangan bo'lsa, ulardagi 3000 mashina-traktor stansiyalari ham tugatildi.

1947-yilda SSSR Qishloq xo'jalik ministsrligi qoshida Mashina-traktor stansiyalarining Bosh boshqarmasi tuzildi. Xarkov paravoz zavodida ishlab chiqarilgan Y.V.Maminaning balonli "Gnom", "Zaporojets", "Karlik" va "Kommunar" traktorlari dastlabki traktorlar bo'ldi. Ommaviy ravishda traktorlarni ishlab chiqarish 1930-yillardan boshlandi. Masalan, 1952-yilgacha SXTZ-NATI (STZ-3) traktor ishlab chiqarildi [3].

O'zbekiston SSRda ham paxtachilikni rivojlantirish maqsadida 1929-1932-yillarda 150 mln. so'mlik traktor va asbob uskunalar keltirildi. 1932-yilda mashina-traktor stansiyalari (MTS) soni 62 taga yetdi. 1940-yilda 189 ta MTSdagi traktorlar soni 19,2 mingtadan oshdi va respublikada 1177 kombayn, 586 ta pichan maydalagich, 2204 g'alla va 6138 ta seyakalar bor edi [4].

Qishloq xo'jaligi mashinalarining ko'payishi bilan paxtachilikni mexanizatsiyalash ishlari ham amalga oshirib borildi. Agar 1937-yil paxta maydonlarini shudgorlash 68,6 foiz bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1941-yilga kelib 80 foizga yetdi. Shuningdek, chigitni seyakalar bilan ekish 1937-yildagi 39,6 foizdan 1941-yili 64,7 foizga yetdi, traktor orqali kultivatsiya qilish 2 barobarga ortdi. Respublika paxtachiligini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi qurildi. Endi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun O'zbekistonda sixmola, paxta va g'alla seyakalari, kultivator, okunchik va bir qator uskunalar tayyorlanadigan bo'ldi.

1957-yilga kelib mamlakatda 7 903 ta MTSlar bo'lib, 1958-yil 31-martda SSSR Oliy Sovetining "Kolxoz qurilishini yanada rivojlantirish va mashina-traktor stansiyalari qayta qurish haqida"gi Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra barcha kolxozlarga qishloq xo'jalik texnikasi sotiladigan bo'ldi va MTSlar texnik-ta'mirlash stansiyalariga (RTS) aylantirildi. RTSlarning asosiy vazifasi qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish, uni sotish, kolxozlarda yangi texnikalarni joriy etishga ko'maklashish kabilardan iborat bo'ldi. Natijada MTSlar 1959-yillarga kelib, ularning bazasida tashkil etilgan RTSlar soni 3 532 taga yetdi [5]. Qonun asosida KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar sovetining 1958-yil 18-aprel 425-son qarori bilan mashina-traktor stansiyalarini (MTS) tugatilib, texnika xizmati va ta'mir ishlari kolxoz va sovxozlarga berildi. Keyinroq, MTSlar o'rniga Ta'mirlash-Texnologiya Stansiyalari (TTS) tashkil etildi. Ular tizimida davlat texnik inspektorlari lavozimlarini joriy etildi. Texnik inspektorlarning vazifasiga mashina-traktor parkidan texnik foydalanish masalalarida nazoratni amalga oshirish va xo'jaliklarga yordam ko'rsatish kirdi.

Qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash Sovxarxozlar tashkil etilib, uning ixtiyoriga o'tkazilayotgan mamlakat bo'ylab barcha 577 ta ta'mir tashkilotlari kattagina zarar ko'rdi. Kolxozlar MTS doirasida maosh to'lashda, ularni uy-joy bilan ta'minlashda, MTSlarni o'rta va oliy ma'lumotlarni kadrlarni yig'ib olishda ham muammolar bor edi. 1958-yilda RSFSR kolxozlariga 19,5 ming nafar bitiruvchilar yo'naltirildi. MTSlardan qishloq xo'jalik artellariga 4,8 ming kishi o'tdi, kolxozlarga 24,3 ming mutaxassislar yuborildi. Lekin, ular belgilangan joylarda uzoq ishlamaganlar, natijada 1958-yil 15-maydan 1959-yil 15-mayga qadar 26 ming nafar mutaxassisa qisqardi [6]. Kolxozlar tomonidan olinayotgan

traktorlar muntazam ta'mir talab bo'lgan, tabiiyki bu holat qishloq xo'jaligini ortga ketishiga sabab bo'ldi. N.Xrushev islohotlaridagi MTSlarning qayta tuzilishi "juda ko'p salbiy holatlarga olib keldi [7]". RTSlarda traktorlarni ta'mirlash kolxozlar uchun qimmatga tushdi. Kolxoz raislari bo'lsa mablag' tejash maqsadida traktorlarni o'z kuchlari bilan ta'mirlashga majbur bo'ldilar. 1959-yilda qishloq xo'jaligiga traktorlarni yetkazib berish 1958-yilga nisbatan 13,2 ming donaga kamayib ketdi. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqalarda traktorlarni ishlatish juda yuqori bo'ldi. Ayni paytda traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalariga yuqori narx belgilanishi kolxozlarni murakkab ahvolga soldi, davlatdan qarzdor qilib 1965-yilga kelganda davlatdan qarz 5 mlrd. rubl bo'lib, uning 2,4 mlrd rubli iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan kolxozlarga to'g'ri keldi [8].

1960-yillarga kelib mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi sezildi. Qishloq xo'jaligi orqaga keta boshladi. 1961-yil KPSS MQning yanvar plenumidan keyin 1961-yil 2-fevralda SSSR Ministrlar sovetining "Qishloq xo'jalik texnikasini, texnika zahira uskunalarini, mineral o'g'itlarni va boshqa moddiy-texnik uskunalarini sotish, kolxoz va sovxozlardagi mashinalarni ta'mirlash, foydalanish tashkil etish maqsadida SSSR Ministrlar soveti qoshida Butunittifoq birlashma ("Soyuzselxoztexnika") tashkil etish haqida"gi qarori chiqdi. "Soyuzselxoztexnika" qoshida 1961-yil 12-maydagi SSSR Qishloq xo'jalik ministrligi qarori bilan "Qishloq xo'jalik mashinalari ta'miri va ekspluatatsiya davlat shug'ullanuvchi ittifoq ilmiy-tadqiqot texnologik instituti" tugatilib, 1961-yil 17-mayda SSSR Qishloq xo'jalik va tayyorlash ministrligining qarori bilan tashkil etilgan Qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish davlat va ittifoq ilmiy – tadqiqot texnologiya instituti (GosNITI) 1961-yil 17-mayda "Soyuzselxoztexnika" birlashmasining qarori bilan "Mashina-traktor parklarini ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish Butunittifoq davlat texnologiya instituti tashkil etildi.

Texnik-iqtisodiy va informatsiya markaziy ilmiy-tadqiqotlar instituti (SNIITEI), bu institut keyinchalik "Goskomselxoztexnika" qoshida ham saqlanib qoldi. Shuningdek, Pushkin nomidagi Davlat hududiy mashina-tajriba stansiyasi qoshidagi institutlar ham birlashma tarkibiga kiritildi.

"Soyuzselxoztexnika" birlashmasi texnik nazorat o'rnatishi, muhandislik ishlarini bajarish bo'yicha asosiy bo'g'in bo'lib qolishi kerak edi. Birlashma qoshidagi inspektorlar yiliga ikki marotaba mashina-traktor parklaridagi texnikani nazoratdan o'tkazish bo'ldi [9]. Qaror bilan Davlat texnik inspektor lavozimi tashkil etildi. Ular texnikalarni texnik ko'rikdan o'tkazish, mashinalarni ta'mirlash sifatini tekshirish, kolxoz, sovxozlarda texnika, yonilg'i-moylash materiallari, ehtiyot qismlarni saqlash va ularga mashina va uskunalaridan samarali foydalanishda yordam berishlari kerak edi. Biroq, hukumatda mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantira oladigan "yagona reja"ga ega bo'lmaganligi sababli, bu sohada ham oqsashlar boshlandi [10]. 1960-yilning o'rtalariga kelib ham texnikani ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish ishlarining bir qismini bajaruvchi "Selxoztexnika" tizimi texnik inspektorlar nazoratidan chetda qoldi. Texnik inspektorlar xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning tuzilmasida bo'lib, ko'pincha ushbu tashkilotlarning manfaatlarini himoya qildilar, kamchiliklardan ko'z yumdilar va shu bilan ular o'zlarining lavozimlarini obro'sizlantira boshladilar. Bunday holat qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini ham, boshqaruv organlarini ham qanoatlantira olmadi.

1961-yil 17-oktabrdan 31-oktabrgacha bo'lib o'tgan KPSS MQning XXII syezdida kommunistik partiya tarixida uchinchi marotaba "sovet xalqini kommunizmga yo'natirishga mo'ljallangan" KPSS Programmasi qabul qilindi. Unda qishloq xo'jaligi kompleks mexanizatsiyalashni qo'llash va avtomatika vositalaridan foydalanish, texnika iqtisodiy

ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va har bir zona sharoitiga mos keladigan mashinalar sistemasini joriy qilish qishloq xo'jalik mehnati unumdorligini oshirish uchun asosi bo'ladi. Partiya qishloq xo'jaligini tez elektrlashtirishni eng muhim vazifalardan biri deb hisoblaydi. Barcha sovxoz va kolxozlar ishlab chiqarish va maishiy maqsadlar uchun davlat energetika sistemasidan, shuningdek, qishloq elektr stansiyalari qurish yo'li bilan elektroenergiya bilan ta'minlanadi, deb belgilab qo'yildi. Shuningdek, butun aholining va xalq xo'jaligining qishloq xo'jalik mahsulotlariga ehtiyojlarini to'la qondirishi maqsadida, qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy hajmini 10 yil mobaynida taxminan ikki yarim marta oshirish, 20 yil uch yarim marta oshirish vazifasi qo'yildi. Sovet ittifoqi birinchi o'n yillikda aholi jon boshiga asosiy qishloq xo'jalik

XX asrning 60-yillarida mashina-traktor stansiyalari

mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha AQShdan o'tib ketish rejasi belgilandi. Buning uchun avvalo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyani qo'llanish va avtomatika vositalaridan foydalanish, texnika iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va har bir zona sharoitiga mos keladigan mashinalar tizimini joriy qilish qishloq xo'jalik mehnati unumdorligini oshirish belgilandi. "Qishloq xo'jaligini texnika jihatidan qayta qurollantirish mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilishning eng progressiv forma va metodlari bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mehnatkashlarning madaniy – texnik saviyasini har tomonlama oshirish bilan birga qo'shib olib borish, yangi texnikani egallab olgan xo'jaliklarda malakali xodimlar tobora ko'payib borishi" belgilandi [11].



Qishloq xo'jaligida qo'l mehnatining saqlanib qolishi mashina-traktor stansiyalari oldiga hamda "Selxoztexnika" oldiga qator vazifalarni qo'ydi. 1965-yilda KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining "1961-1965-yillarda SSSRda qishloq xo'jaligini elektrlashtirish to'g'risida"gi qarori chiqdi. Qaror kelajakda kolxoz va sovxozlarni davlat energotizimiga bog'langan holda elektrlashtirish vazifasini qo'ydi. 1965-yilda u kolxoz va sovxozlar-dagi chorvachilik xo'jaliklarini suv bilan ta'minlash uskunalariga, sog'ish, jun qirg'ish, yem tayyorlaydigan mashinalarni ishga tushirish, bug'doy quritish, qishloq xo'jalik mahsulotlarining birinchi ishlovini amalga oshirish, kolxoz va sovxozlardagi mashina ustaxonalarini elektr energiyasi bilan ta'minlanishiga sharoit yaratib berish chora-tadbirlari belgilab berdi. Lekin bu belgilangan vazifalar kolxozlar hisobidan bajarilishi ham belgilandi. Bu tabiiyki xo'jaliklarni elektr energiya bilan ta'minlash ishlarini ortga surib yubordi. Natijada 1964-yilga kelib mamlakatda yirik shoxli qoramollar fermalarini suv bilan ta'minlash uskunalari o'rnatish 47 foizga, yem-xashak tarqatish 2

foizga, binolardan go'ng tashish 7 foizga elektr energiya bilan ta'minlandi. Cho'chqachilik fermalarida mexanizatsiyalash ishlar yem berishda 13 foizga, go'ngdan tozalashda 14 foizga bajarildi [12].

Xulosa. Sovet nazariyotchilari texnologik taraqqiyotni murakkab muhandislik muammosi deb bilishgan, uni faqat markazlashtirilgan rejalashtirish orqali samarali hal qilish mumkin. Biroq, bu yondashuv 1970-yillarning o'rtalaridan boshlab sovet ittifoqining keng texnologik frontda ortda qolishining asosiy sabablaridan biriga aylandi. Sovet texnika siyosatini amalga oshirishda besh yillik rejalar asosiy vositasi bo'lgan. Har bir besh yillik rejada ilmiy-tadqiqot va texnologik ishlanmalarining ustuvor yo'nalishlari, moliyalashtirish manbalari va rejalashtirilgan natijalar aniq belgilab qo'yilgan. Davlat ilmiy-tadqiqot loyihalari uchun katta mablag'lar ajratgan, asosan yadro fizikasi, raketa texnikasi, kosmonavtika kabi strategik sohalarga yo'naltirilgan.

ADABIYOTLAR

1. История машинно-тракторных станций // https://www.great-country.ru/articles/sss/sov_selo/00034.html /Сайт "Великая страна СССР"/
2. Мотревич В.П. Машинно-тракторные станции на Урале в годы Великой Отечественной войны // Аграрный вестник Урала. 2013. -№4, - с. 36.
3. Дидманидзе О.Н., Деяннин С.Н., Парлюк Е.П. Трактор сельскохозяйственный: вчера, сегодня, завтра // Agricultural science Euro-North-East, 2020; 21(1): 74-85.
4. История развития механизации хлопководства в Узбекистане. – Ташкент. Фан, 1985. – с. 72.
5. Сельское хозяйство СССР. Стат сборник. – Москва. 1960. – с. 41.
6. Томилин В.Н. Ремонтно-технические станции и колхозы // Исторический курьер. 2021. -№4, - с. 101.
7. Зеленин И.Е. Аграрная политика Н.С.Хрущева и сельское хозяйство//Отечественная история.2000.-№1,-с 87.
8. Милосердов В.В., Милосердов К.В. Аграрная политика России. – Москва. XX век, 2002. – с. 57.
9. Ўз МА. Р- 2469, рўйхат – 2, йўзма жилд – 18, - 4 varaқ.
10. Деревянко., Н. Шабельникова. История России. С древнейших времен до конца XX века. – Москва. Право и закон, 2001. - с 564.
11. Совет Ўзбекистони. 1967 йил 29 январь.